

To'g'ridan-to'g'ri muloqot va fikr-mulohaza: Uzbekistan Airways Namanganda sayyor qabul tashkil etdi

2026 25 Avgust

To'liq shaffoflik va samarali hamkorlikni maqsad qilgan holda, Namangan shahrida Uzbekistan Airways rahbariyati va mutaxassislari ishtirokida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.







Namangan viloyati hokimligi va Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmasi ko'magida tashkil etilgan tadbir jonli "savol-javob" formatida o'tkazildi. Muloqotda aviachiptalar sotuvi bo'yicha agentlar, turistik kompaniyalar va OAV vakillari, yoshlar, shuningdek, hudud aholisi hamda tadbirkorlari ishtirok etdilar.





Uzbekistan Airways muntazam ravishda viloyatlarda tashkil etayotgan sayyor uchrashuvlar ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Muloqot chog'ida, avvalgi tadbirlarda bo'lgani kabi, yangi yo'nalishlarni ishga tushirish, ichki turizmni targ'ib qilish va O'zbekistonning qadimiy shaharlariga parvozlar bo'yicha takliflar qizg'in muhokama qilindi. Aviakompaniya rahbarlari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan savollarga ham real vaqt rejimida javob berishdi.





Uzbekistan Airways bunday jonli muloqot formatini qadrlaydi, chunki bu fuqarolar va hamkorlarning fikrlarini tinglash imkonini beradi, bu esa parvozlar geografiyasini muvaffaqiyatli kengaytirish va xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.